https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Qo‘qon davlat universiteti Pedagogika va psixologiya

fakulteti Amaliy psixologiya yo‘nalishi 4-bosqich talabasi

Sobirova Dilnavoz G‘anijon qizi

dilnavozsobirova@gmail.com

+998 906992398

O‘SMIRLARDA KASBIY QIZIQSHLARNING SHAKLLANTIRISHNI EKSPREMENTAL O‘RGANISH

Annotasiya.

Mazkur maqolada o‘smirlar shaxsida kasbiy qiziqishlarning shakllanish jarayoni va uning psixologik-pedagogik omillari eksperimental yo‘l bilan o‘rganildi. Tadqiqot davomida o‘smirlarning individual qobiliyatlari, ehtiyojlari, motivatsion yo‘nalganligi hamda ijtimoiy muhitning kasbiy tanlovga ta’siri tahlil qilindi. Eksperiment jarayonida maxsus ishlab chiqilgan trening mashg‘ulotlari, kasbga yo‘naltiruvchi metodikalar va diagnostik testlar qo‘llanildi. Olingan natijalar kasbiy qiziqishlarni maqsadli pedagogik ta’sir orqali rivojlantirish mumkinligini ko‘rsatdi. Tadqiqot natijalari umumta’lim maktablarida kasbga yo‘naltirish ishlarini samarali tashkil etishda, psixologlar va pedagoglar faoliyatida amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar. O‘smirlik, motivatsiya, kasb, trening, metod, testlar, pedagog, ta’lim.

EXPERIMENTAL STUDY OF THE FORMATION OF PROFESSIONAL INTERESTS IN ADOLESCENTS.

Abstract.

This article examines the process of formation of professional interests in adolescents and its psychological and pedagogical factors through an experimental

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

approach. During the study, adolescents' individual abilities, needs, motivational orientation, and the influence of the social environment on career choice were analyzed. In the course of the experiment, specially designed training sessions, career guidance methods, and diagnostic tests were applied. The obtained results demonstrate that professional interests can be developed through purposeful pedagogical influence. The findings of the study have practical significance for organizing effective career guidance activities in general education schools and for the professional practice of psychologists and educators.

Keywords: adolescence, motivation, profession, training, method, tests, pedagogue, education.

ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНОЕ ИЗУЧЕНИЕ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ ИНТЕРЕСОВ У ПОДРОСТКОВ.

Аннотация.

В данной статье экспериментальным путем изучается процесс формирования профессиональных интересов у подростков и психологопедагогические факторы, влияющие на него. В ходе исследования были проанализированы индивидуальные способности, потребности, мотивационная направленность подростков, а также влияние социальной среды на выбор профессии. В процессе эксперимента применялись специально разработанные тренинговые занятия, методики профессиональной ориентации и диагностические тесты. Полученные результаты показали, что профессиональные интересы могут эффективно развиваться посредством целенаправленного педагогического воздействия. Результаты исследования имеют практическую значимость для эффективной организации профориентационной работы в общеобразовательных школах, а также в деятельности психологов и педагогов.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Ключевые слова: подростковый возраст, мотивация, профессия, тренинг, метод, тесты, педагог, образование.

Kirish. O‘smirlik davri inson hayotida o‘ziga xos bosqich bo‘lib, bu davrda shaxsning kasbiy yo‘nalishlari, qiziqishlari va kelajakdagi faoliyatga bo‘lgan munosabati shakllana boshlaydi. Kasbiy qiziqishlar – bu shaxsning muayyan faoliyat turiga nisbatan ichki moyilligi, uni egallashga intilishi va bu faoliyat orqali o‘zini namoyon qilish ehtiyoji bilan bog‘liq. Kasbiy qiziqishlar vaqt o‘tishi bilan o‘zgarishi yoki barqarorlashishi mumkin. Ularni erta bosqichda aniqlash va baholash psixologik yondashuvda muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtayi nazardan, psixodiagnostika kasbiy yo‘nalish va qiziqishlarni aniqlash, tahlil qilish hamda bu sohada samarali yo‘naltirish ishlarini olib borish uchun muhim vositadir. Ayniqsa, o‘smirlik davrida bu jarayon puxta tashkillashtirilsa, kelajakdagi kasb tanlovida xatoliklar kamayadi, o‘zini anglash kuchayadi. Kasbiy qiziqishlarni psixologik jihatdan o‘rganish nafaqat shaxsning hozirgi intilishlarini, balki uning potentsial imkoniyatlarini, mehnatga bo‘lgan yondashuvini va shaxsiy sifatlarini aniqlash imkonini beradi. Bu esa o‘quvchilarning individualligini inobatga olgan holda kasbiy yo‘naltirish ishlarini olib borish uchun muhimdir. O‘smirlar bilan ishlashda noto‘g‘ri kasb tanlovi, oilaviy yoki ijtimoiy bosim ostida berilgan qarorlar, kasbga bo‘lgan real qiziqish va imkoniyatlar o‘rtasidagi tafovut salbiy psixologik oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shu sababli kasbiy qiziqishlar psixodiagnostik metodlar orqali chuqur va tizimli o‘rganilishi lozim. Ta’lim berishda individual ta‘limdan foydalanish uning samaradorligini oshirishda alohida ahamiyatga ega.[1] O’quvchining individual xususiyatlari, qiziqishlariga qarab bilimlarni taqdim etish imkoniyatini beradi. Shu bilan birga o’quvchilarning mustaqil, ongli tanlovlarini ta‘minlaydi. Buning natijasida o’quvchilar o’zlarining shaxsiy hayot yo’llarini loyihalashtirish imkoniyatiga ega bo’ladilar, ularda tadqiqotchilik, loyihalash, erkin mulokot va tanlov ko’nikmalari tarkib topadi. Tabaqalashtirilgan bilimlar

[1] Kamolova, S., & Amanxonova, Y. (2022). O‘quvchilar tafakkur jarayonlarini shakllantirishda pedagogik texnologiyalarning ahamiyati.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

yordamida ular o'zlarining individual kasbiy yo'nalishlarini belgilashga intiladilar. Maktab ta'limini tabaqalashtirish asosida kasbiy sohalarga ajrashi maqsadiga yo'naltirilgan pedagogik harakatlar ixtisoslashgan ta'lishi shaxsga yo'naltirilgan o'quv jarayoni sifatida tarkib toptirish imkogani beradi. Bu esa o'kuv jarayonini individuallashtirishning samarali shakli hisoblanadi. Buning natijasida har bir o'quvchining shaxiy quvvatlari namoyon bo'ladi va ro'yobga chiqadi. Har qanday shisoslashgan ta'lim jarayoni birinchi navbatda o'quvchi shaxsiga ynaltirilgan uni rivojlantiruvchi o'quv modelidir.

Agar o'quv jarayoni ktisoslashtirilsa, ko'pvariantlilik asosida tarkib toptirilsa o'quvchilarda ko'p qirrali faoliyatning rivojlanishiga asos bo'ladi. Bu kasbiy yo'nalish va rivojlanishning individual yo'liga ega bo'lish demakdir. Bu jarayonda o'quvchi bilan pedagogik-psixologik hamkorlik qilish psixologlar bilan o'quvchilar orasida amalga oshirilib, unda o'quv-tarbiya jarayonining sub'ektlari sifatida ota-onalar va o'qituvchilar ishtirok etishlari lozim. Shaxsga yo'naltirilgan rivojlantiruvchi ta'lim jarayonining muhim vazifalaridan biri, o'qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirishdan iborat. Bu jarayonda ularning psixologik bilimdonliklarini ta'minlash alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki o'qituvchi turlicha qiziqish va intilishlarga ega bo'lgan o'quvchilar bilan ishlashi, ular bilan ishchan muloqotga kirishishi lozim. Chunki zamonaviy pedagogik jarayonda turlicha rivojlanish me'yoriga ega bo'lgan o'quvchilar bilan hamkorlik qilish ehtiyoji mavjud. Bunda: o'rtacha statistik, [2] individual-shaxsiy ko'rsatgichlar inobatga olinadi. Zamonaviy ijtimoiy madaniy vaziyatlarda o'qituvchilar bilan bir qatorda, ota-onalarning ham o'kuvchilarning ta'lim-tarbiyasidagi o'rni ortib bormoqda. Lekin amaliy tajribalar shuni ko'rsatmoqdagi ko'pgina ota-onalar o'z farzandlarining ta'lim-tarbiyasida pedagogik-psixologik bilimlarning yetishmasligidan qiynaladilar. Ularning pedagogik-psixologik madaniyatlari juda past bo'lib, farzandlarining to'g'ri ixtisoslapguvi, o'ziga mos

[2] Mirashirova.N A. Umumiy psixologiya. – T.: 2016

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

ta‘lim yo’nalishini tanlashi uchun zarur bo’lgan maslahatlarni bera olmaydilar. Bunday sharoitda ota-onalar bilan ishlash pedagogik-psixologik hamkorlikning muhim sharti sifatida amalga oshirilishi, psixologlar hamda sinf rahbarlari ular bilan turli maslahatlar, suhbatlar, seminarlar, treninglar tashkil etishlari lozim. Bunday pedagogik-psixologik chora-tadbirlar davomida ota-onalarning muloqot, hamkorlik, ziddiyatlarni bartaraf etish ko’nikmalarining rivojlanishiga alohida qaratilishi talab qilinadi. Namangan viloyati Pop tumani 1-IDUM o‘quvchilari o‘rtasida Ye.A.Klimovning “Differensial diagnostik so‘rovnoma” metodikasini o‘tkazdik. Bu metodika yordamida sinaluvchiga faoliyatning u yoki bu turidan qaysi biri unga ko‘proq ma’qul ko‘rishligi va shunga mos ravishda qaysi kasbga moyilligi aniqlanadi. Maqsad: O‘quvchilarning qiziqishlari sohasini aniqlash.[3]

Ko‘rsatma: “Faraz qilaylik tegishli ta’limni olganingizdan so‘ng. Siz har qanday ishni bajara oladigan bo‘lasiz. Agar Sizga taklif qilingan ikki imkoniyatdan faqat birini (ulardan biri yoki ikkalasining ham sizga yoqishi yoki yoqmasligidan qat’iy nazar) tanlashingizga to‘g‘ri kelgundek bo‘lsa, unda Siz qaysi birini ma’qul ko‘rgan bo‘lardingiz? O‘z javoblaringizni, javoblar uchun berilgan varaqda, tegishli kataklarda qayd etilgan. Siz tanlagan javob variantingiz tartib raqami va harfini doira ichiga olib qo‘yish bilan bildiring. Imkon qadar tezroq ishlashga va javoblaringizda samimiy bo‘lishga harakat qiling”.

Tiplarning tahlili.

Inson - tabiat (1-ustun) Bog'bon, zootexnik, veterinar, chorvachi, geolog, agronom, biolog, o‘rmonchi, asalarichi, tuproqshunos va boshqalar. **Inson - texnologiya (2-ustun)** Mexanik, tokar, radiotexnik, signalchi, tikuvchi, haydovchi, elektrik, muhandis, montajchi va boshqalar. **Odam-odam (3-ustun)** Sotuvchi, o'qituvchi, bolalar bog'chasi o'qituvchisi, enaga, tarbiyachi maktablar, texnikumlar,


[3] Steinberg, L. (2020). *Adolescence* (12th ed.). New York: McGraw-Hill..O‘smirlik davridagi psixologik, ijtimoiy va emotsional rivojlanish.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

universitetlar; shifokor; hamshira, ofitsiant, administrator va boshqalar. **Odam – belgilar tizimi (4 tizim)** Chizmachi, mashinist va kompyuter operatori, radio operatori, rejalashtiruvchi, iqtisodchi, korrektor, dasturchi, telegraf operatori, matn terishchi va boshqalar. **Odam - badiiy obraz (5 ustun)** Rassom, o'ymakor, me'mor, fotograf, aktyor, tosh maydalagich, rassom, musiqachi, modeler, shisha puflovchi va boshqalar.

Metodika bo‘yicha o‘quvchilar 20ta savolga javob berishlari so‘raldi. Olingan natijalarga ko‘ra:

		O-T	O-Tt	O-Bt	O-O	O-Ba
1	Asatova G	+				
2	Abbosov T			+		
3	Botirova G			+		
4	Botirova Sh		+			
5	Yuldasheva M				+	
6	Azizova Y					+
7	Tursunov I				+	
8	Rasulov F					+
9	Ergasheva D					+
10	Sodiqova O				+	
11	Po'latova M			+		
12	Mustafoyeva A				+	
13	Vohidova R					+
14	Hoshimova M					+
15	Fattoxov S					+
16	Qosimov J			+		
17	Nazirxonova U	+				
18	Gulomov Sh				+	
19	Lutfullayev K	+				
20	Nazrullayev V		+			
21	Oripova I		+			
22	Zafarova Z	+				
23	Zafarova F	+				
24	Vladimorov A					+
25	Shermatova N				+	
		5	3	4	6	7
		20%	12%	16%	24%	28%
		O-T=5	O-Tt=3	O-Bt=4	O-O=6	O-Ba=7



Yuqoridagi jadvaldan ko‘rinib turibdiki, 25ta 8-sinf o‘quvchilardan 5ta odam-tabiat, 3ta odam-texnologiya; 4ta odam-belgilar tizimi; 6ta odam-dam; 7ta odam-badiiy obraz tiplari aniqlangan.

Undan tashqari, o‘smirlarda kasbiy qiziqishlarning shakllanishi va ularni psixokorreksiyalash bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar ko'plab ijtimoiy-psixologik omillarni o'rganishga qaratilgan. Bu jarayonda o'smirlarning shaxsiy xususiyatlari, ijtimoiy-madaniy ta'sirlar va ta'lim muhitining roli muhim ahamiyatga ega. **“Kasblarga munosabat” so‘rovnomasi** – turli kasblar haqida o‘smirning qiziqishini aniqlash, kasbga ijtimoiy va hissiy munosabatini baholash imkonini beradi. **Superning kasbiy rivojlanish bosqichlari testi** – shaxsning hayotiy rejalari va kasb tanlashdagi pozitsiyasini aniqlashga xizmat qiladi. Undan tashqari

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

amerikalik psixolog olim Ya.Xolland taklifi bo‘yichan odamlar va ko‘pchilik kasblarni shartli ravishda 6 guruhga bo‘lish mumkin (realistik, ijtimoiy, konvensial (shartli), tadbirkor, artistik tiplar). Bu metodika asosida yuqorida qayd qilingan tiplarni qay biri qay darajada shaxsda namoyon bo‘lishini aniqlash mumkin. Kasblarning xususiyati shundaki, shaxs psixologiyasida qaysi bir yo‘nalish ko‘proq shakllangan bo'lsa, shu kasb o‘ziga ko‘proq jalb qiladi. Bu test orqali o‘smir realistik, intellektual, ijtimoiy, badiiy, tadbirkor yoki an’anaviy tipga mansubligini aniqlab, mos kasb turlarini tavsiya etadi. Bola o'quv faoliyatida o'qituvchi rahbarligida insoniy an'analar asosida harakat qilishga o'rganadi, o'z irodasini o'quv maqsadlariga erishish uchun mashq qildiradi. O‘quv faoliyati boladan nutq, diqqat, xotira, tasavvur va tafakkurini kerakli darajada rivojlanishini talab etgan holda, bola xulq-atvorining rivojlanishi uchun yangi sharoitlarni yaratadi. O‘smirlik davri bu anglanilgan va ixtiyoriy xatti-harakatlarga o'tish davridir. [4] Bola faol ravishda o'zini o'zi boshqarishga, qo'yilgan maqsadlarga ko'ra o'zining faoliyatini tashkil etishga o'rganish davridir.

Xulosa va tavsiyalar. Butun dunyo va mamlakatimiz zamonaviy tizimida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar, izlanishlar ijodkorlikni rivojlantirishga e’tiborning kuchayishi bilan birga keladigan harakatlantiruvchi kuch sifatida qaralmoqda. Hozirgi zamon tasavvurlariga muvofiq, ta’limning asosiy vazifalaridan biri o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini shakllantirish va rivojlantirish uchun sharoitlar yaratishdan iborat. Inson-jamiyat-tabiat-turmush munosabatlarini tekshirgan olimlar Bondura, Sirs, Brofenbrenner, Myasishchev odamning ular bilan har xil turdagi va ko’rinishdagi kauzal, strukturaviy, funksional, fazoviy va makoniy aloqalar tizimi mavjudligini ta’kidlab o‘tganlar.[5] O‘smirlik davri inson shaxsining shakllanishida eng muhim bosqichlardan biri bo‘lib, bu davrda shaxsda o‘zini anglash, mustaqil qaror qabul qilish va kelajak hayotiy yo‘lini belgilashga

[4] Eccles, J.S., Wigfield, A. (2020). From expectancy–value theory to situated expectancy–value theory. *Contemporary Educational Psychology.*

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

bo‘lgan ehtiyoj kuchayadi. Kasbiy qiziqishlarning aynan shu davrda shakllanishi, uning barqarorlashuvi yoki o‘zgaruvchanligi psixologik jihatdan murakkab va individual jarayondir. Psixologik diagnostika vositalari o‘smirlarning kasbiy qiziqishlari, shaxsiy moyilliklari, motivatsiya manbalari va ijtimoiy muhit ta’sirini chuqur o‘rganishga imkon yaratadi. Golland, Super, Ginzberg kabi olimlarning nazariyalari va amaliy test metodlari yordamida kasb tanlashga oid qarorlar chuqur tahlil qilinadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, o‘z vaqtida o‘tkazilgan psixodiagnostik ishlar o‘smirlarning o‘ziga mos kasb tanlashiga, ijtimoiy muhit bilan uyg‘unlashishiga va shaxsiy salohiyatini to‘laqonli ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladi. Bunda nafaqat psixolog, balki o‘qituvchi, ota-ona va jamiyatning boshqa institutlari ham faol ishtirok etishi kerak. Maktab psixologlari va pedagoglari muntazam ravishda o‘quvchilar orasida kasbiy qiziqishlarni aniqlashga qaratilgan psixodiagnostik ishlarni tashkil etishlari zarur. Bu jarayon shaxsiy yondashuv asosida olib borilishi lozim.Kasbiy yo‘naltirish ishlariga ota-onalarni jalb qilish orqali o‘quvchining oilaviy qadriyatlari va real imkoniyatlari bilan kasbiy tanlovni uyg‘unlashtirish maqsadga muvofiqdir. Kasb-hunar ko‘rgazmalari, seminar-treninglar, mutaxassislar bilan uchrashuvlar o‘quvchilarning kasblar haqida aniq va real tasavvurga ega bo‘lishlariga xizmat qiladi. Shaxsiy portfoliolar va kasbiy rivojlanish jurnallari orqali o‘smirlarning vaqt o‘tishi bilan o‘zgarayotgan qiziqishlari, tanlov motivlari va o‘z-o‘zini baholashlarini muntazam monitoring qilish tavsiya etiladi. O‘quv dasturlariga “Kasbga yo‘naltirish” fanini kiritish yoki mavjud mashg‘ulotlarni yanada boyitish orqali kasbiy orientatsiyani nazariy va amaliy jihatdan chuqurlashtirish mumkin.Psixologik xizmat faoliyatini ilg‘or texnologiyalar bilan boyitish, ya’ni onlayn testlar, kasbiy qiziqishlar bo‘yicha mobil ilovalar va interaktiv platformalarni yaratish orqali o‘quvchilarning ushbu sohaga bo‘lgan qiziqishini oshirish lozim. Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, yuqoridagi metodika, tavsiyalar orqali o’quvchilarni kasbiy qiziqishlarni aniqroq qilib aniqlashga ega bo’lamiz.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Foydalanilgan adabiyotlar.

1.Kamolova, S., & Amanxonova, Y. (2022). O‘quvchilar tafakkur jarayonlarini shakllantirishda pedagogik texnologiyalarning ahamiyati.

2.Mirashirova.N A. Umumiy psixologiya. – T.: 2021.

3.Steinberg, L. (2020). *Adolescence* (12th ed.). New York: McGraw-Hill..O‘smirlik davridagi psixologik, ijtimoiy va emotsional rivojlanish.

4.Eccles, J.S., Wigfield, A. (2020). From expectancy–value theory to situated expectancy–value theory. *Contemporary Educational Psychology.*

5.E. G’. G’oziyev Ontogenez psixologiyasi.- Toshkent.: 2020.